

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**  
**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**  
**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR KAFEDRASI**

**“TASDIQLAYMAN”**  
ADTI rektori **M.M. Abdazimov**  
“ 2025 yil



**O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI**

**ISHCHI O‘QUV DASTURI**

1-kurs

**Bilim sohasi:** 900000 – Sog‘liqni saqlash va  
ijtimoiy ta’minot  
**Ta’lim sohasi:** 910000 - Sog‘liqni saqlash  
**Ta’lim yo‘nalishi:** 60910200- Davolash ishi

**Andijon – 2025-yil**

<b>Fan/modul kodi</b> O'YT1104	<b>O'quv yili</b> 2025-2026	<b>Semestr</b> II	<b>Kreditlar</b> 4	
<b>Fan/modul turi</b> Majburiy	<b>Ta'lim tili</b> O'zbek		<b>Xaftadagi dars soatlari</b> 4	
<b>1.</b>	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
	O'zbekistonning eng yangi tarixi	60	60	120
<b>2.</b>	<p><b>I. Fanning mazmuni.</b></p> <p><b>Fanni o'qitishning maqsadi</b> – O'zbekiston jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan hududlardan biri, o'zbek xalqi boy tarixiy o'tmish va bebaho ma'naviy merosga egaligi, mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida yuz bergan muhim o'zgarishlar, tub islohotlarning mazmun-mohiyatini ko'rsatib berish va jamiyat hayotida, ijtimoiy turmush tarzida ma'naviyatning asosi bo'lmish tarix fanining o'rnini talaba yoshlarga o'zlikni anglash vositasi sifatida, shuningdek, O'zbekiston rivojlanishining yangi bosqichida barkamol avlodni tarbiyalashda, shaxs, fuqaro, inson, jamiyat va davlat tamoyili mohiyatini yetkazib berishdan iborat.</p> <p><b>Fanni o'qitishning vazifalari</b> – boy tarixiy o'tmish, xususan, o'zbek davlatchiligiga tarixiy ekskurs uyushtirish, qarama-qarshiliklarga boy ziddiyatli XX asr tarixi mazmun-mohiyatini ochib berish, mustaqillikka erishish arafasida O'zbekistonda yuzaga kelgan murakkab ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy vaziyat hamda mustaqillik yillarida davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hamda boshqa sohalarda amalga oshirilgan islohotlarning mazmun-mohiyatini talabalarga to'liq tushuntirib berish, ularni Vatanga sadoqat va muhabbat ruhida tarbiyalash hamda Yangi O'zbekiston yoshlarida milliy g'urur va iftihorni shakllantirishdan iborat.</p> <p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p><b>II.I. Fan tarkibiga qo'yidagi mavzular kiradi:</b></p>			
	<b>No</b>	<b>Ma'ruzalar mavzulari</b>		<b>Soatlar</b>
	1	<p><b>1-mavzu. Kirish. "O'zbekistonning eng yangi tarixi" o'quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy-metodologik tamoyillari.</b></p> <p>"O'zbekistonning eng yangi tarixi" – O'zbekiston tarixining uzviy va ajralmas qismidir. "Eng yangi tarix" tushunchasi va uning izohi.</p> <p>"O'zbekistonning eng yangi tarixi" o'quv fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Fanni o'rganishning nazariy-uslubiy asoslari. O'zbekiston</p>		2

	<p>Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning yuksak intellektual salohiyatli, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazishda mamlakat eng yangi tarixining tutgan o'rni to'g'risida. XXI globallashuv asrda ta'lim sohasida mazkur fanni o'qitishdagi nazariy-konseptual yondashuv va ilg'or innovatsiyalar. Yangi O'zbekiston yoshlari ta'lim-tarbiyasidagi ma'naviy mezonlarni targ'ib etishda tarix fanining tutgan o'rni.</p>	
2	<p><b>2-mavzu. O'zbekistonda mustaqillik g'oyalarining tarixiy asoslari</b></p> <p>Davlatchilik tushunchasi. O'zbek davlatchiligi va uning tarixiy bosqichlari. Mamlakatimiz erki va ozodligi uchun kurashgan qahramon shaxslar: Shiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi va boshqalar. Amir Temur – buyuk davlat arbobi va sarkarda. Temuriylar hukmronligi davrida ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti. O'rta Osiyoning xonliklarga bo'linib ketishi, uning sabab va oqibatlari.</p> <p>Turkiston Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida. Milliy ozodlik harakatlari. Mustamlaka boshqaruv tartiboti va uning mohiyati. Fidoyi jadid ma'rifatparvarlarining faoliyati va ularning o'lka ma'rifiy va madaniy hayotida tutgan o'rni. Sovet hukmronligi davrida O'zbekistonning markazga ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy qaramligi va uning oqibatlari. Sovetlarning qatag'on-zo'ravonlik siyosati va uning mohiyati.</p>	2
3	<p><b>3-mavzu. Mustaqillikka erishish arafasida O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.</b></p> <p>XX asr 80-yillari o'rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotidagi inqirozli holat. "Qayta qurish" siyosati va uning O'zbekistonga ta'siri. Markaz tomonidan "Paxta ishi", "o'zbek ishi" kabi mash'um kampaniyalarning o'tkazilishi. Aholi turmush tarzining og'irlashuvi. Orol fojiasi. Farg'ona voqealari. 1989-yil o'rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'zgarishlar. Mustaqillik deklaratsiyasi va uning tarixiy ahamiyati. 1989-1991-yillarda amalga oshirilgan o'zgarishlar va ularning mohiyati. 1991-yil avgust voqealari. GKChP. Sovet davlatining tanazzulga yuz tutishi.</p>	2
4	<p><b>4-mavzu. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi tashkil topishining tarixiy ahamiyati. O'zbekistonning o'ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo'li.</b></p> <p>Mustaqillik arafasida respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvol. O'zlikni anglashga intilishning kuchayishi. Siyosiy tizimdagi o'zgarishlar. Mustaqillikning e'lon qilinishi. O'zbekiston Respublikasining tashkil etilishi. Mustaqillikning ilk davrida davlat suverenitetini mustahkamlash yo'lidagi sa'y-harakatlar. Mustaqil O'zbekiston davlatining yuzaga kelishi va mustahkamlanishida I.Karimovning tarixiy xizmatlari.</p> <p>Mustaqil taraqqiyotning dastlabki bosqichidagi muammolar. O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'lining tanlashi. Taraqqiyotning "O'zbek modeli" va uning o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan strategiya asoslarning ustuvor yo'nalishlari. Mustaqillik me'yoriy- huquqiy asoslarining yaratilishi. 1992-yil Mustaqil O'zbekiston</p>	2

	Konstitutsiyasining qabul qilinishi va uning tarixiy ahamiyati. Davlat ramzlari.	
5	<p><b>5-mavzu. O‘zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar.</b></p> <p>Milliy davlat boshqaruvi tizimi. Mustaqil O‘zbekistonda hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi. O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va uning ahamiyati. Siyosiy partiyalar faoliyatidagi xususiyatlar. O‘zbekistonda parlament tizimi va undagi islohotlar. Huquq-tartibot organlari va sud tizimidagi o‘zgarishlar. O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlar va ularning siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki. Ijtimoiy-sherikchilik. O‘z-o‘zini boshqaruv organlarining faoliyati va ularning jamiyatni demokratlashtirishdagi o‘rni. O‘zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. Inson haq-huquqlarini ta‘minlash va himoya qilish.</p>	2
6	<p><b>6-mavzu. Iqtisodiy islohotlar, xususiy mulkchilikning shakllanishi. O‘zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanishi.</b></p> <p>O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi, uning yo‘nalishlari, bosqichlari va xususiyatlari. Bozor munosabatlariga o‘tishning huquqiy asoslari. Iqtisodiy islohotlarning besh tamoyilini amalga oshirish mexanizmi. Pul islohotining o‘tkazilishi. Bozor infratuzilmasining shakllanishi, qishloq xo‘jaligidagi islohotlar, uning vazifalari va yo‘nalishlari. Sanoat, avtomobilsozlik sohasining rivojlanishi. Makroiqtisodiyotni barqarorlashtirishga erishish. Mamlakat iqtisodiyotining modernizatsiya va diversifikatsiya qilinishi, bank-moliya tizimini mustahkamlash borasidagi chora-tadbirlar. Makroiqtisodiy barqarorlik tomon yo‘l olinishi.</p>	2
7	<p><b>7-mavzu. O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy sohadagi islohotlar.</b></p> <p>Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi, bosqichlari va rivojlantirilishi. Manzilli ijtimoiy himoya tizimining yaratilishi. Ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borishi, sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, aholini uy-joy bilan ta‘minlash, yo‘l-transport muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish. Nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy himoya masalasidagi ishtiroki.</p> <p>Yangi O‘zbekistonda oila instituti va uning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi. Gender tengligi. Xotin-qizlarga bo‘lgan munosabat. Onalik va bolalik haq-huquqlarini himoya qilinishi. O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning mazmun-mohiyati, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish.</p>	2
8	<p><b>8-mavzu. Mustaqillik yillarida O‘zbekistondagi ma‘naviy va madaniy taraqqiyot.</b></p>	2

	<p>Milliy istiqlol g'oyasi va mafkuraviy masalalar. Milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an'analarning qayta tiklanishi. Mustaqillik yillarida buyuk ajdodlar va tarixiy shaxslarga bo'lgan e'tibor. Mustaqillik yillarida ajdodlar merosi va milliy qadriyatlarni tiklash borasidagi davlat siyosati. O'zbekistondagi tarixiy - Xiva, Buxoro, Samarqand, Shaxrisabz, Termiz, Qarshi, Marg'ilon shaharlari yubileylarining nishonlanishi. Toshkent shahrining "Islom madaniyati poytaxti" deb e'lon qilinishi va uning ahamiyati. Madaniyat va san'at sohasining rivojlanishi. Milliy sport turlarining rivojlantirilishi.</p> <p>Yangi O'zbekistonning uchinchi renessans tomon tutgan yo'li. "Beshta tashabbus" va uning yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rni. O'zbekistonda millatlararo va dinlararo munosabatlardagi barqarorlikni ta'minlash borasidagi davlat siyosati. Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasi. Amaliy san'at, rassomchilik, teatr va kino san'ati. O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishi. Samarqand shahri - jahon turizm poytaxti.</p>	
9	<p><b>9-mavzu. O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar.</b></p> <p>Mustaqillikning ilk yillarida ta'lim tizimidagi o'zgarishlar. Yangi jamiyat qurishda ta'lim va tarbiyaning o'rni va roli. 1992-yilgi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ning (1997 y.) qabul qilinishi. Ta'lim milliy modelining shakllanishi, rivojlanishi va sohadagi muammolar. Mustaqillik yillarida ilm-fanning rivojlanishi.</p> <p>Yangi O'zbekistonda ta'lim tizimidagi islohotlar. Zamonaviy o'qitish va ta'lim tizimiga doir davlat siyosati. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonuni (2020 y.). Ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikning yo'lga qo'yilishi. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.</p>	2
10	<p><b>10-mavzu. O'zbekiston va jahon hamjamiyati.</b></p> <p>O'zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati va uning jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi. O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy-siyosiy aloqalarining yo'lga qo'yilishi. O'zbekiston Respublikasining BMTga a'zo bo'lishi va jahon hamjamiyatida tutgan o'rni. Tashqi siyosat faoliyati konsepsiyasi. O'zbekistonning MDHDagi o'rni va mavqeining oshib borishi, Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro hamkorlik aloqalari. O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan istiqbolli hamkorliklari.</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning o'zaro manfaatli va yaqin qo'shnichilik tamoyillariga asoslangan ochiq va shaffof tashqi siyosati. O'zbekistonning mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash borasida olib borayotgan siyosati. Markaziy Osiyoda xavfsizlik masalalari, terrorizm, giyohvandlik va odam savdosiga qarshi kurashda O'zbekiston Respublikasining faolligi. O'zbekistonning ShHT bilan aloqalarining kengayishi. ShHTning Samarqand deklaratsiyasi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar bilan yangi strategik sherikchiligi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti</p>	2

	<p>Sh.Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan faol tashqi siyosatning jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilishi.</p> <p>Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.</p>	
11	<p><b>11-mavzu. Yangi O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlarning xalqaro reyting va indekslarda aks etishi</b></p> <p>“O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy etish” borasidagi davlat siyosati, huquqiy-normativ hujjatlarning qabul qilinishi, mazkur yo'nalishdagi ishlarning samaradorligiga to'siq bo'layotgan muammolarni bartaraf etish yuzasidan olib borilayotgan chora-tadbirlar:</p> <p>O'zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo'lgan xalqaro reyting va indekslar bo'yicha samaradorlikning eng muhim ko'satkichlarini oshirish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar. “Biznes yuritish indeksi”, Boshqaruv sifati indikatorlari, Elektron hukumatni rivojlantirish reytingi, “Korruptsiyani qabul qilish indeksi”, “Logistika samaradorligi indeksi”, “Jahon bankining Statistik salohiyat indeksi”, “Iqtisodiy erkinlik indeksi”, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (IHTT) mamlakatlarga xos xatarlarni tasniflash tizimi. “Inson kamoloti indeksi”, “Huquq ustuvorligi indeksi”, “Jahon mamlakatlari demokratiyasi indeksi”, “Matbuot erkinligi indeksi” va boshqalar.</p>	2
12	<p><b>12-mavzu. Yangi O'zbekistonda Prezident Sh.M.Mirziyoyev rahbarligi va tashabbusi ostida amalga oshirilayotgan islohotlar</b></p> <p>2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining hayotga tatbiq etilishi va uning natijalari. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari g'oyasi va uning mohiyati. O'zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining umumxalq tomonidan qabul qilinishi (2023 y. 30 aprel). Konstitutsiya XXI asr zamonaviy</p>	2
13	<p><b>13-mavzu. Yangi O'zbekistonda Prezident Sh.M.Mirziyoyev rahbarligi va tashabbusi ostida amalga oshirilayotgan islohotlar</b></p> <p>O'zbekistonning asosiy qonuni. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining mazmun-mohiyati va ustuvor yo'nalishlari. “Taraqqiyot strategiyasi” doirasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar.</p> <p>O'zbekiston-2030 strategiyasi. Uning xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilishi.</p>	2
14	<p><b>14-mavzu. Yangi O'zbekistonda xalqchil va insonparvar davlat qurishning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati</b></p> <p>2016-yil sentyabridan virtual qabulxonalarning ochilishi. 2017- yildan keyingi</p>	2

	davrda jamiyatda amalga oshirilayotgan siyosiy o'zgarishlarning xususiyatlari, davlat organlarining xalq bilan muloqotining kengayishi, Xalq qabulxonalarning faoliyati hamda mahalla institutlarining yanada takomillashuvi bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar.	
15	<b>15-mavzu. Yangi O'zbekistonda xalqchil va insonparvar davlat qurishning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati</b> Inson haq-huquqlarini himoya qilish va shaxs qadr-qimmati ta'minlash borasida sud organlarining faoliyati va O'zbekiston sud huquq tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish. Yangi O'zbekistonda ijtimoiy sohaga bo'lgan zamonaviy munosabat. Ta'lim, sog'liqni saqlash, turizm, sport va boshqa sohalardagi tub o'zgarishlar.	2
	<b>JAMI</b>	30 soat

### III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar SEMINAR MASHG'ULOTLAR REJASI

№	Seminar mashg'ulotlar mavzulari	Soat- lar
1	<b>1-mavzu. "O'zbekistonning eng yangi tarixi" o'quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy metodologik tamoyillari.</b>  <b>Reja:</b> 1. O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining fan sifatida tutgan o'rni. Uning o'rganish ob'yekti va predmeti. 2. O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining metodologik, ilmiy-nazariy asoslari, usullari va tamoyillari. 3. O'zbekistonning eng yangi tarixini davrlashtirish. 4. O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganishning ahamiyati.	2
2	<b>2-mavzu: O'zbekistonda mustaqillik g'oyalarining tarixiy asoslari</b>  <b>Reja:</b> 1. Davlatchilik tushunchasi. O'zbek davlatchiligi va uning tarixiy bosqichlari. 2. Mamlakatimiz erki va ozodligi uchun kurashgan qahramon shaxslar: Shiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi va boshqalar. 3. Amir Temur – buyuk davlat arbobi va sarkarda. Temuriylar hukmronligi davrida ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti. 4. O'rta Osiyoning xonliklarga bo'linib ketishi, uning sabab va oqibatlari. 5. Rossiya imperiyasi va sovet mustamlakachiligi davri tarixi.	2
3	<b>3-mavzu. Mustaqillikka erishish arafasida O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.</b>  <b>Reja:</b>	2

	<p>1. XX asr 80-yillari o'rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotidagi inqirozli holat.</p> <p>2. Markazning O'zbekistonda amalga oshirgan qatag'on siyosati. "Paxta ishi", "O'zbeklar ishi" nomli soxta ishlar.</p> <p>3. Aholi turmush tarzining og'irlashuvi. Orol fojiasi.</p> <p>4. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy hayotning keskinlashishi. Farg'ona voqealari.</p> <p>5. Islom Karimov – O'zbekiston rahbari. Mustaqillik Deklaratsiyasining qabul qilinishi.</p>	
4	<p><b>4-mavzu. Mustaqil O'zbekiston respublikasining tashkil topishi va uning tarixiy ahamiyati.</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Reja:</b></p> <p>1. Mustaqillik arafasida respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvol. O'zlikni anglashga intilishning kuchayishi.</p> <p>2. Siyosiy tizimdagi o'zgarishlar. Mustaqillikning e'lon qilinishi. O'zbekiston Respublikasining tashkil etilishi.</p> <p>3. I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylanishi.</p> <p>4. O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'lini tanlashi. Taraqqiyotning "o'zbek modeli" va uning o'ziga xos xususiyatlari.</p> <p>5. Mustaqil O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasining yaratilishi.</p> <p>6. Davlat ramzlarining qabul qilinishi.</p>	2
5	<p><b>5-mavzu. O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar.</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Reja:</b></p> <p>1. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining konseptual asoslarining shakllanishi.</p> <p>2. O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va uning ahamiyati. Siyosiy partiyalar faoliyatidagi xususiyatlar.</p> <p>3. O'zbekistonda parlament tizimi va undagi islohotlar.</p> <p>4. O'zbekistonda nodavlat-notijorat tashkilotlar va ularning siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki. Ijtimoiy sherikchilik.</p> <p>5. O'zini o'zi boshqaruv organlarining faoliyati va ularning jamiyatni demokratlashtirishdagi o'rni.</p> <p>6. O'zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. Inson haq-huquqlarini ta'minlash va himoya qilish.</p>	2
6	<p><b>6-mavzu. Iqtisodiy islohotlar, xususiy mulkchilikning shakllanishi. O'zbekistonda bozoro munosabatlarining rivojlanishi.</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Reja:</b></p> <p>1. Bozor iqtisodiga o'tishning asosiy tamoyillari.</p>	2

	<p>O‘zbekistonning o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish yo‘lini tanlashi.</p> <p>2. Bozor iqtisodiyotiga o‘tilishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlantirilishi, mamlakatimizdagi iqtisodiy o‘shish.</p> <p>3. O‘zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligining o‘rni. Agrar islohotlar.</p> <p>4. O‘zbekiston xalq xo‘jaligining yangi istiqbollari.</p>	
7	<p><b>7-mavzu. O‘zbekiston respublikasidagi ijtimoiy o‘zgarishlar</b></p> <p><b>Reja:</b></p> <p>1. Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi.</p> <p>2. Aholi turmush darajasini yuqori darajada ta‘minlash.</p> <p>3. O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning mazmun-mohiyati.</p>	2
8	<p><b>8-mavzu. Mustaqillik yillarida O‘zbekistondagi ma‘naviy va madaniy taraqqiyot.</b></p> <p><b>Reja:</b></p> <p>1. Mustaqillik yillarida milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an‘analarning qayta tiklanishi.</p> <p>2. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning ajdodlar merosi va milliy qadriyatlarni tiklash borasidagi xizmati.</p> <p>3. Shaharlar – ilm-fan, madaniyat va ma‘naviyat maskani. Toshkent – “Islom madaniyati poytaxti”.</p> <p>4. Mustaqillik yillarida madaniyat va san‘atning taraqqiyoti. Beshta tashabbus va uning yuksak ma‘naviy madaniyatni ta‘minlashdagi o‘rni.</p> <p>5. O‘zbekistonda millatlararo va dinlararo munosabatlardagi barqarorlikni ta‘minlash borasidagi davlat siyosati.</p>	2
9	<p><b>9-mavzu. O‘zbekiston respublikasida ta‘lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar.</b></p> <p><b>Reja:</b></p> <p>1. Mustaqillik yillarida ilm-fanning rivojlanishi. “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning qabul qilinishi.</p> <p>2. Ta‘limning milliy modelining shakllanishi, rivojlanishi va sohadagi muammolar.</p> <p>3. Oliy ta‘lim sohasida qabul qilingan Qonunlar va ularda belgilangan vazifalar.</p> <p>4. Ta‘lim sohasida xalqaro hamkorlikning yo‘lga qo‘yilishi.</p>	2
10	<p><b>10-mavzu. O‘zbekiston va jahon hamjamiyati.</b></p> <p><b>Reja:</b></p>	2

	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy ustuvor tamoyillari.</li> <li>2. O‘zbekiston Respublikasining BMTga a‘zo bo‘lishi hamda jahon hamjamiyatidagi o‘rni hamda nufuzining ortib borishi.</li> <li>3. O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan istiqbolli hamkorligi.</li> <li>4. O‘zbekistonning ShHT bilan aloqalari.</li> <li>5. O‘zbekistonning MDHdagi o‘rni va Markaziy Osiyo davlatlari bilan o‘zaro hamkorlik aloqalari.</li> <li>6. O‘zbekiston faol tashqi siyosatining yangi bosqichi.</li> </ol>	
11	<p><b>11-mavzu. Yangi O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarning xalqaro reyting va indekslarda aks etishi</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Reja:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Xalqaro reyting va indekslar haqida ma’lumot, ularning dunyodagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta’siri.</li> <li>2. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash borasidagi davlat siyosati, qabul qilingan huquqiy-normativ hujjatlar.</li> <li>3. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini oshirish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar.</li> </ol>	2
12	<p><b>12-mavzu. Yangi O‘zbekistonda Prezident Sh.M.Mirziyoyev rahbarligi va tashabbusi ostida amalga oshirilayotgan islohotlar</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Reja:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining ishlab chiqilishi, hayotga joriy etilishi va uning ahamiyati.</li> <li>2. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi va unda belgilangan ustuvor yo‘nalishlar:</li> </ol>	2
13	<p><b>13-mavzu. Yangi O‘zbekistonda Prezident Sh.M.Mirziyoyev rahbarligi va tashabbusi ostida amalga oshirilayotgan islohotlar</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Reja:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. O‘zbekistonning asosiy qonuni. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining mazmun-mohiyati va ustuvor yo‘nalishlari.</li> </ol>	2

	<p>2. “Taraqqiyot strategiyasi” doirasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar.</p> <p>3. O‘zbekiston-2030 strategiyasi. Uning xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilishi.</p>	
14	<p><b>14-mavzu. Yangi O‘zbekistonda xalqchil va insonparvar davlat qurishning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati</b></p> <p><b>Reja:</b></p> <p>1. 2016-yil sentyabridan virtual qabulxonalarning ochilishi.</p> <p>2. 2017- yildan keyingi davrda jamiyatda amalga oshirilayotgan siyosiy o‘zgarishlarning xususiyatlari, davlat organlarining xalq bilan muloqotining kengayishi.</p> <p>3. Xalq qabulxonalarning faoliyati hamda mahalla institutlarining yanada takomillashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlar.</p>	2
15	<p><b>15-mavzu. Yangi O‘zbekistonda xalqchil va insonparvar davlat qurishning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati</b></p> <p><b>Reja:</b></p> <p>1. Inson haq-huquqlarini himoya qilish va shaxs qadr-qimmatini ta’minlash borasida sud organlarining faoliyati.</p> <p>2. O‘zbekiston sud huquq tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar.</p> <p>3. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish.</p> <p>4. Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy sohaga bo‘lgan zamonaviy munosabat. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, turizm, sport va boshqa sohalardagi tub o‘zgarishlar.</p>	2
	<b>JAMI</b>	30 soat

**Seminar mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha umumiy ko‘rsatma va tavsiyalar:**

Seminar mashg‘ulotlari multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyalardan bir akademik guruhga bir professor-o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi zarur. Mashg‘ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

**IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar**

**Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular :**

1. IX-XII asrlarda mamlakatimiz hududida ro‘y bergan madaniy uyg‘onish (Renessans).Buyuk allomalarning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi. 4-soat
2. Jaloliddin Manguberdi - Vatan himoyachisi. 4-soat

3. Amir-Temur buyuk davlat arbobi. 4-soat
4. Mirzo Ulug‘bek - davlat arbobi va buyuk olim. 4-soat
5. Jadid ma‘rifatparvarlarining o‘lka ijtimoiy-ma‘naviy hayotida tutgan o‘rni (Munavvar Qori, Fitrat, Behbudiy, Avloniy va boshq.). 4-soat
6. “Qayta qurish” yillarida O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. 4-soat
7. O‘zbekistonda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar mazmun va mohiyati. 4-soat
8. Mustaqillik yillarida davlat boshqaruvi tizimida amalga oshirilgan islohotlar. 4-soat
9. Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ma‘naviy o‘zgarishlar. 4-soat
10. O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarining faoliyati. 4-soat
11. Mustaqillik yillarida qishloq xo‘jaligi va sanoat sohasidagi o‘zgarishlar. 4-soat
12. Yangi O‘zbekistonda inson haq-huquqlari va erkinliklari kafolatining yaratilishi. 4-soat
13. Yangi O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarning xalqaro reyting va indekslarda aks etishi. 4-soat
14. O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari. 4-soat
15. O‘zbekistonning Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta‘minlashdagi o‘rni. 4-soat

**Jami-60 soat**

**- Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:**

- Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

**3. V. Ta‘lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalar**

**Talaba bilishi kerak:**

- Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:

- Mustaqillik yillarida mamlakatimiz bosib o‘tgan tarixiy yo‘lning mazmun-mohiyatini, O‘zbekistonning eng yangi tarixida amalga oshirilgan o‘zgarishlarning ahamiyatini;
- zamonaviy jarayonlarda O‘zbekistonning jahon hamjamiyati bilan integratsiyasi, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rni va nufuzini ortib borishi kabi jarayonlarni tarixiylik va xolislik nuqtai nazaridan ***bilishi*** kerak;
- O‘zbekistonning eng yangi tarixi muammolarini o‘rganish, dunyoqarashni mustahkamlashda milliy mustaqillik g‘oyasini qo‘llay bilish, atrofida sodir bo‘layotgan jarayonlarga o‘z munosabatini bildira olish, jamiyat va inson dunyoqarashi rivojida tarix fanining o‘rnini anglash va bugungi kunda sodir bo‘layotgan voqealarning tarixdagi muhim voqealar bilan bog‘liqligini bilish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi*** kerak.

	<ul style="list-style-type: none"> <li>• O‘zbekistonning eng yangi tarixini chuqur bilish, ma’naviy-milliy va umuminsoniy masalalar bo‘yicha o‘z qarashlarini ilmiy asoslashni va ifodalashni bilish, milliy mustaqillik g‘oyalariga amal qiladigan faol hayotiy dunyoqarash kabi <i>malakalarga ega bo‘lishi</i> kerak.</li> </ul>
4.	<p><b>VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari.</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma’ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalar.</li> </ul>
5.	<p><b>VII. Talablar kreditlarni to‘plash tartibi .</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil atijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, joriy nazorat bo‘yicha topshirish.- joriy nazorat (JN);</p> <p><b>Joriy nazorat uchun 4 kredit ajratiladi:</b></p> <p>JNda talabaning modul mavzulari bo‘yicha bilim, amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarni egallash darajasini aniqlash va baholab borish ko‘zda tutiladi. O‘zbekistonning eng yangi tarixi moduli bo‘yicha JN og‘zaki, o‘rgatuvchi-nazorat testlari, tarqatma materiallari bilan ishlash, vaziyatli masalalar, uyga berilgan vazifalarni tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o‘tkazilishi mumkin.</p> <p>Baholashda talabaning bilim darajasi, seminar mashg‘ulot materiallarini o‘zlashtirishi, nazariy material muhokamasida va ta’limning interaktiv usullarida ishtirokining faollik darajasi hisobga olinadi. Har bir mashg‘ulotda barcha talabalar baholanishi shart. Maksimal ball 100, o‘tish bali 55 ball.</p> <p>Joriy nazoratda saralash (o‘tish) ballidan kam ball to‘plagan va uzrli sabablarga ko‘ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so‘nggi joriy nazorat uchun bo‘lgan muddat beriladi. Joriy nazoratda talaba ajratilgan kreditni to‘liq to‘plashi shart, Kasalligi sababli darslarga qatnashmagan hamda belgilangan muddatlarda joriy nazoratni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi asosida, o‘qishni boshlaganidan so‘ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi. Semestr yakunida modul bo‘yicha joriy nazoratda saralash balidan kam ball to‘plagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi. Akademik qarzdorlarga semestr tugaganidan keyin qayta o‘zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida modulni o‘zlashtira olmagan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko‘ra belgilangan tartibda rektorning buyrug‘i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.</p> <p>Modulga ajratilgan 4 kreditni talaba JN davomida yig‘adi</p>

<b>Modul bo'yicha talaba reytingi quyidagicha aniqlanadi:</b>					
<b>Ball</b>	<b>EC TS bah o</b>	<b>ECTS ning ta'rifi</b>		<b>Baho</b>	<b>Ta'rifi</b>
86-100	A	"a'lo" - a'lo natija, minimal hatoliklar bilan	<p>modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi;</p> <p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>muammoli savollarni aniqlashi, o'z qarashlarini ilmiy-amaliy tilda asoslab bera olishi;</p> <p>modulning tayanch tushunchalarini bilishi va uni qisqa vaqt ichida ilmiy va amaliy masalalarni yechishda samarali qo'llay olishi;</p> <p>nostandart vaziyatlarda muammolarni mustaqil va ijodiy hal qila olish qobiliyatini ko'rsata olishi;</p> <p>modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglash, ularga tanqidiy baho berish va boshqa modullar ilmiy yutuqlarini qo'llay olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yuqori madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>	5	a'lo
81-85	B	"juda yaxshi" - o'rtadan yuqori natija, ayrim hatoliklar bilan	<p>modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi;</p> <p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;</p> <p>modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;</p>	4	yaxshi

			<p>standard vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi; amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to'liq egallashi;</p> <p>modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi;</p> <p>o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda juda yaxshi madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>		
71-80	C	"yaxshi" - o'rtacha natija, sezilarli hatoliklar bilan	<p>modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi, ammo bir oz kamchiliklar bilan;</p> <p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;</p> <p>modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;</p> <p>standart vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi; amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni egallashi, ammo bir oz kamchiliklar bilan;</p> <p>amaliy mashg'ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham ratsional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;</p> <p>modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi;</p> <p>o'rganilayotgan modul bo'yicha</p>		

			<p>nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;</p> <p>seminar mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yaxshi darajaga ega bo'lishi lozim;</p>		
60-70	D	"qoniqarli" - sust natija, qo'pol kamchiliklar bilan	<p>malaka talablari doirasida yetarli bilim hajmiga ega bo'lishi;</p> <p>terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim xatolarga yo'l qo'yishi;</p> <p>javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;</p> <p>modulning umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standart (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi;</p> <p>pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;</p> <p>o'qilayotgan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>	3	Qoniqarli
55-59	E	"o'rta" - minimal natijaga teng	<p>malaka talablari doirasida qoniqarli bilim hajmiga ega bo'lishi;</p> <p>terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim qo'pol xatolarga yo'l qo'yishi;</p> <p>javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda va hatolarga yo'l qo'yganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;</p> <p>modulning umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standart (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi;</p> <p>pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;</p> <p>o'qilayotgan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar</p>		

			mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;		
31-54	FX	"qoniqarsiz" - minimal darajadagi bilim-larni olish uchun qo'shimcha mustaqil o'zlashtirishi zarur	malaka talablari doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa; ilmiy terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa; seminar mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa; amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa.	2	Qoniqarsiz
0-30	F	"mutloq qoniqarsiz" to'liq qayta o'zlashtirishi lozim	malaka talablari doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa; terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy va qo'pol mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa yoki umuman javob bermasa; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa yoki umuman bajarmasa; amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa.		

Fanga oid o'quv materiallarni tayyorlashda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti O'quv jarayonlarini rejalashtirish va tashkil etish boshqarmasining 2024-yilgi "O'zbekistonning eng yangi tarixi" fanidan ishlab chiqilgan barcha nomutaxassis yonalishlar talabalar uchun mo'jallangan o'quv dasturidan foydalanildi .

6.

#### **Rahbariy adabiyotlar:**

1. Sh.M. Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Sh.M. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.
3. Sh.M. Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson ma'nfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yiliga bag'ishlangan tantanali

marosimidagi ma'ruzasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.

4. Sh.M. Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.

5. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: O'zbekiston, 2022.

6. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. 5-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2023.

7. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2023.

8. Sh.M. Mirziyoyev. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. - Toshkent: O'zbekiston, 2024.

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. R.H.Murtazayeva O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. Darslik. - Toshkent: Mumtoz so'z, 2019.

2. R.H.Murtazayeva, A.A.Yermetov, A.A.Odilov va boshq. O'zbekistonning eng yangi tarixi. - Toshkent, 2024.

3. A.S.Sagdullayev umumiy tahriri ositida. O'zbekiston tarixi. 1-jild. Darslik. – Toshkent: NIF MSH. 2024.

4. B.J.Eshov, A.A.Odilov. O'zbekiston tarixi. 2-jild. Darslik. – Toshkent: NIF MSH. 2024.

К.Д.Саипова. Новейшая история Узбекистана (учебное пособие). –Ташкент: NIF MSH, 2024.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. O'zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). 2 tom. Mas'ul muharrirlar: R.Abdullaev, Q.Rajabov, M.Rahimov. Darslik.- Toshkent: O'zbekiston, 2019.

2. O'zbekiston tarixi. Mas'ul muharrir R.H.Murtazayeva. Darslik. – Toshkent, 2020.

3. D.T.To'xtaboyeva. O'zbekistonning eng yangi tarixi: ma'naviy yangilanish, madaniy taraqqiyot va ijtimoiy o'zgarishlar. O'quv qo'llanma. - Toshkent, 2021.

4. N.Oblamurodov. F.Tolipov. O'zbekistonning eng yangi tarixi. Darslik. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2022.

5. A.A.Insopov. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini shakllanishi va rivojlanish tarixi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Universitet. 2023.

6. O.Q.Alimardonov. O'zbekistonning eng yangi tarixi: tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishlari (o'quv qo'llanma). - Toshkent, FAST SUPPORT AND RESULT, 2023.

7. Т.И.Дорошенко. Новейшая история Узбекистана (учебное пособие ). Ташкент: Metodist nashriyoti, 2023.

8. Д.М.Иноятова. Новейшая история Узбекистана (учебное пособие для вечерних отделений). - Ташкент: Metodist nashriyoti, 2023.

9. Sattarov A.M. O'zbekistonda yangi yerlarni o'zlashtirishda Farg'ona

	<p>vodiysi viloyatlari aholisining ko‘chirilishi (1946-1991-yillar): O‘quv qo‘llanma: Andijon: «JAHONA NASHR» nashriyoti, 2024 –176 .</p> <p style="text-align: center;"><b>Axborot manbalari</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. www.ziyounet.uz.</li> <li>2. www.edu.uz.</li> <li>3. www.google.uz.</li> <li>4. www.gov.uz.</li> </ol>
7.	Andijon davlat tibbiyot instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida tomonidan ishlab chiqilgan va Markaziy uslubiy kengashining 2025-yil " ____ " _____ - son qarori bilan tasdiqlandi.
8.	<p><b>Fan/modul uchun mas’ullar:</b></p> <p>B.N.Batirova – ADTI “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasida dotsenti, tarix fanlari nomzodi.</p> <p>A.M.Sattarov – ADTI “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasida dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori.</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p>L.R.Usmonova Samarqand davlat tibbiyot instituti Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasida dotsenti.</p> <p>A.A.Abduhalimov – ADTI Yoshlar bilan ishlash ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi boshlig‘i tarix fanlari doktori, dotsent.</p>